



**JADIDCHILIKNING ASOSIY MAQSADLARI : ILM, MA'RIFAT,
MADANIYAT, VATANGA MUHABBAT VA MILLIY O'ZLIKNI
ANGLASH.**

*Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyot
mutaxassisligi magistranti*

Sirojova Dilyora

*Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik milliy harakatlarining tug'ilishi,
bosqichlari hamda bosh q'oya va maqsadlari haqida ma'lumot beriladi.
Jadidlarimizning xalq ta'limini rivojlantirishda olib borgan ilmiy izlanishlari
haqida fikr mulohazalar keltirilgan. Maqolada ularning barkamol avlod tarbiyasi
masalalari yuzasidan qarashlari va jadidchilik harakatining asosiy g'oyalari
tasnif qilinib izohlanadi.*

*Kalit so'zlar: Jadidchilik, milliy o'zlik, mustaqillik ,vatanparvarlik,ilm-
ma'rifat, I.Gasprinskiy, Begali Qosimov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy,
Cho'lpon, Islom Karimov, Shavkat Mirziyoyev.*

Аннотация: В статье представлена информация о зарождении, этапах, основных идеях и целях национального движения джадидов. Представлены мнения о научных исследованиях, проводимых нашей молодежью в области развития народного образования. В статье систематизируются и разъясняются их взгляды на вопросы воспитания гармоничного поколения и основные идеи движения джадидов.

Ключевые слова: Джадидизм, национальная идентичность, независимость, патриотизм, наука и просвещение, И. Гаспринский, Бегали Косимов, Убайдулла Ходжаев, Абдулла Авлони, Чолпон, Ислам Каримов, Шавкат Мирзиёев.



Annotation: This article provides information about the birth, stages, main ideas and goals of the Jadid national movement. It presents opinions on the scientific research conducted by our Jadids in the development of public education. The article classifies and explains their views on the issues of raising a harmonious generation and the main ideas of the Jadid movement.

Key words: Jadidism, national identity, independence, patriotism, science and enlightenment, I. Gasprinsky, Begali Kasimov, Ubaydulla Khojayev, Abdulla Avloniy, Cholpon, Islam Karimov, Shavkat Mirziyoyev.

Yurtimiz tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari alohida ahamiyatga ega bir davr hisoblanadi. Chunki bu davrda millatimizni ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan uyg‘otishga qaratilgan jadidchilik nomi ostida katta kuch harakatga keldi. Jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy, ijtimoiy uyg‘onishida va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jadid bobolarimizning eng muhim g‘oyasi va vazifasi qullikka mahkum bo‘lgan xalqni chin ma’noda hurlikka olib chiqish, savodsizlik zulmatida qolgan avlodga ilm-ma’rifat ziyyosini yetkazish edi. Buni jadidchilik harakatining buyuk namoyandasi, ma’rifatparvar Avloniying “qora xalqni oqartirmoq va ko‘zin ochmoq chorasisiga” kirishilgani haqida aytgan gaplari ham tasdiqlaydi.

Ta’kidlash joizki, mazkur davrda Turkiston milliy-taraqqiyatparvarlik harakati – jadidchilikning muhim markaziga aylangan edi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishslashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi juda murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Davrning ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar ana shunday murakkab va qiyin sharoitlarda ham ezgu maqsadlaridan bir qadam ortga chekinmay ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini isloh etishga ahd qildilar. Chunki ular faqat ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifat bilangina ozodlikka,



taraqqiyotga erishish mumkinligini yaxshi anglaganlar. Hurlikka erishmagan xalq esa taraqqiyotdan ham begona bo‘ladi. “Kamolotning yagona omili o‘z aqliga, o‘z mulkiga, o‘z mehnatiga egalikdir”, degan edi yirik jadidshunos olim Begali Qosimov “Mustaqillik o‘zlikni tanimoqdir” nomli maqolasida.

Jadidchilik ilk bor Qrimda 1980-yillarda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida paydo bo‘lgan. Jadidchilik harakati vakillari ko‘pincha o‘zlarini ilg’or, keyinchalik jadidchilar deb atagan. O’sha davrning ilg’or kuchlari, ayniqsa, ziyolilar mahalliy aholining dunyodan ortda qolayotganini sezib, jamiyatni isloh qilish zarurligini anglab yetdi. Jadidchilik mohiyatan siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyat davrlari bor, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xivada bu davrlar 1895-1905 yillar, 1906-1916, 1917-1920, 1921-1929 yillarni qamrab oladi.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Sadiriddin Ayniy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Is’hoqxon Ibrat, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar turardi. Ular har qanday og‘ir sharoitda o‘z qarashlarini o‘zgartirmadilar. Jadidchilik harakati 1906-1916 yillarda o‘zining asosiy yo‘lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o‘zligini anglab, uyushishga chaqirdi. O‘lka moddiy va ma’naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho‘lpon she’rlari va maqolalarida mustamlakachilarning asl qiyofalarini ochib tashladi. Mashhur advokat U.Xo‘jayev oliy o‘quv yurtini tashkil etish, soliqlarni tartibga solish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e’tibor berish masalasini ilgari surdi. Jadidlar 1915-1916 yillarda “Ozodlik, tenglik vaadolat” shiori ostida ishladilar. Chunki jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida yosh avloddan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamонавиј bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtini obod,



farovon etishlariga ishonganlar. Jumladan, Abdulla Avloniy vatanga bo‘lgan muhabbat haqida o‘z munosabatlarini bildirib quyidagilarni yozadi: «Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi». Ushbu o‘rinda Avloniy o‘z fikrini asoslashning turli yo‘l va usullardan foydalangan. Inson qayerga bormasin, qayerda bo‘lmisin Vatanga bo‘lgan muhabbat uni ohangrabodek o‘ziga tortadi. Bunga uning quyidagi misralari yaqqol misol bo‘la oladi:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan olsa ravon,

Bango na g‘am qolur, avlodima o‘y-u vatanim

G‘ubor(g)a do‘nsa tanim, yo‘q vujudi zeri vahm

Charoki, o‘z vatanim hokidur go‘r-u kafanim.

Tug‘ub usan yerim ushbu vatan vujudim xok,

O‘lursa aslina roje’ bulurmi man g‘amnok.

Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma’rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da’vat etish g‘oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo‘lib qoldi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so’ng ilgari o‘rganish ta’qiqlangan manbalarni tadqiq etish uchun keng imkoniyat paydo bo’ldi. Ularni ilmiy – tadqiqot doirasiga kiritib, olingan natijalarni keng jamoatchilikka taqdim etish adabiyot ilmining ustuvor vazifalaridan biridir. Prezidentimiz I. Karimov haqli ravishda ta’kidlaganidek: “Ulkan madaniy merosga ega bo‘lgan Turkiston ne – ne jafolarni ko’rmadi, ne – ne tarixlarni boshidan kechirmadi... Bugungi yangi o’zbek davlatini barpo etar ekanmiz, biz tarixdan, ajdodlar merosidan, ularni ruhi pokidan,



Turkiston xalqlarining qadriyatlaridan, ma’naviy merosidan, san’atidan bahramand bo’lishimiz tabiiydir”.

Shuni ta’kidlash joizki,O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan Milliy uyg‘onish harakatining tom ma’nodagi rahnamolari Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonovlarning Prezident Shavkat Mirziyoyev farmoniga muvofiq “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanishi xalqimizning Istiqlol qahramonlariga nisbatan ulug‘ ehtiromining yorqin ifodasi bo‘ldi. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O‘zbekistonda namoyon bo‘lib turmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston tarixida chuqr ijobiy iz qoldirgan milliy meros hisoblanadi. Jadidchilik harakati va jadid taraqqiyparvarlariga nisbatan mustabid sho‘ro tuzumi tomonidan uzoq yillar davomida olib borilgan qatag‘on siyosatiga qaramay, bugungi kunda Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar, shu jumladan, O‘zbekiston xalqi va ayniqsa, yoshlarida jadidchilik g‘oyalariga ulkan qiziqish mavjud bo‘lib, mazkur g‘oyalar yoshlar uchun ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy va adabiy sohalarda xuddi Cho‘lpon yulduzi kabi yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladi. Zero, jadidchilik harakatining asosiyligi g‘oya va maqsadlari hamda demokratik xarakteri bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. - Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. - 96 б



2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch. – T, Ma’naviyat. 2008.
3. D.H. Nabiiev Fidoyi ma’rifatparvarlar faoliyati – ilmiy tadqiqotlar ko‘zgusida-T, Qarshi “Nasaf” NMIU. 2023.- 4 6
4. Alimova, Dilorom. Жадидчилик феномани. Toshkent, 2022
5. Begali Qosimov “Mustaqillik o‘zlikni tanimoqdir” maqolasi.